Yorug'lik qurilmalarining ish rejimlarini avtomatlashtirish elektr energiya iste'molini tejash, lampalarning xizmat muddatlarini oshirish, optimal yoritish rejimini ta'minlash imkoniyatini beradi. Tashqi maydonlar, ko'chalarni yoritish tizimini avtomatlashtirish uchun FR-2, FRM, Aotipli fotorelelar, programmali boshqarish qurilmalari (PRUS) va boshqalar ishlatiladi. Programmali rostlash tizimlari yordamida ichkixonalarni va tashqi yoritishni ishchi rejimi, navbatchi rejimi, avariya rejimi va boshqa rejimlari tanlab ishga tushiriladi. Texnologik jarayonlarni tungi smenalarda optimal rejim bilan ishlab turishni ta'minlaydi Turli xil qishloq va suv xo'jaligi ob'ektlarida elektr yoritish vositalarini markazlashtirilgan holda boshqarish uchun impulsli teleboshqarish tizimlari, kompyuter tarmog'I bilan bog'langan tizimlar ishlab chiqilgan. Boshqarish tarmog'I o'rniga obyektidagi 0,4kVli tarmoqdan foydalansa bo'ladi. Yoritish tarmog'ida nominal kuchlanishni ushlab turish ayniqsa cho'g'lanma lampalar uchun muhimdir. Kuchlanish pasayganda lampaning yorug'lik berishi tez pasayib boradi. Kuchlanish ortganida esa lampaning xizmat muddati tez qisqaradi. Masalan, agar kuchlanish 10%ga ortiq bo'lsa, cho'g'lanma lampa 1500 soat o'rniga $T=300$ soatgina ishlay oladi, 15% ga ortiq bo'lsa, $T=90$ soatni tashkil qiladi. Yoritish tarmoqlarida kuchlanish ortishi nazorat qilinadi. Kuch transformatorining ikkilamchi chulg'amida kuchlanish avtotransformatorlar, tiristorlar, rezistorlar yordamida chegaralab turiladi. Ular kuchlanishni stabilashtirib yoki chegaralab turish rejimlarida bo'lishlari mumkin. Bunday qurilmalar bir necha guruh yorug'lik manbalari tarmog'ida kuchlanishni avtomat rostlab turadi. PUE qoidalari bo'yicha yoritish tarmog'ida kuchlanishni o'zgarishi $\pm 2,5\%$ deb belgilangan. Kuchlanish xavfi lampalar transformatorga yaqin yoki tarmoq oxirida bo'lsa mavjud bo'ladi. Chunki past kuchlanishli tarmoqlarda optimal tarmoq uzunligi 0,2-0,4km bo'lib, bu masofa har doim ham shunday bo'lmaydi. $L=500$ metrdan ortsa kuchlanish me'yoridan past bo'lib ketadi. Transformatorga yaqin joylarda esa kuchlanish me'yoridan yuqori bo'ladi. Kuchlanish past bo'lishi lyumenessent lampalarni ishga tushirishda ko'proq seziladi. Yorug'lik manbalari toza saqlash. Ko'pchilik yoritgichlar, lampalar shisha sirtli bo'ladi va ularni tozaligi, changi artilganligi, yorug'lik berish ko'rsatgichlariga ta'sir qiladi. Yorug'lik nurlaridan samarali foydalanish uchun xonalarning ichki devorlarini oq va ochiq ranglarga bo'yash oynalarni oq pardalar bilan to'sish zarur. Agar xona devorlari va shifti oq rangda bo'lsa, yorug'lik nurining qaytish koeffitsienti $\eta=75\%$ bo'ladi. Devorlar chang yoki suvoq bo'yicha qolgan bo'lsa $\eta=10-15\%$ ni tashkil qiladi xolos. Shuning uchun xona devarlari yoritgichlar sirti belgilangan muddatlarda tozalab turiladi. Yoritgichlarni tozalashda ular tarmoqdan ajratib qo'yiladi. Kuchli chang ajralib turuvchi

xonalarda (ozuqa sexi, paxta tozalash sexi) 15 kunda bir tozalab turiladi. Boshqa binolarda obyekt harakteriga qarab 1 oydan 4 oygacha bir marta tozalab turiladi. Nurlatish qurilmalarining nurlatish rejimlari ufirmetrar yordamida nazorat qilib turiladi. Ular ultrabinafsha (OBU, OBSH, OBNU) yoki infra qizil nurlar (SSPO, ORI, EO, ORK-2, OU-4) yoki unvirsal (KKUF, «LUG») bo'lishi mumkin. Har bir qurilmaning ekspluatatsiyasi sharoitlaridan kelib chiqib texnik qarov muddatlari belgilanadi. Texnologik talablardan kelib chiqib har bir qurilmaning ish rejimlari belgilanadi. Qurilmalar eskirgansari ularni ish muddatlari (nurlatish vaqti) ortib borishi zarur. Agar lampadan chiqayotgan nurlar intensivligi 30% dan ortiq pasaysa, u yangisiga almashtirilishi zarur. Nurlatish qurilmalari ishlatilganda xonalar shamollatilib turilishi, tirik organizimlariga ta'sirlari hisobga olib ish rejimlari aniqlanishi zarur. Barcha sanitar va xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilib ishlar bajarilishi zarur. Xizmatchilar maxsus ko'zoynak, himoya kiyimida bo'lishlari lozim. Yoritish va nurlatish vositalarining texnik ekspluatatsiyasi ularni ishonchli ishlab turishini ta'minlovchi texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlarni o'z ichiga oladi. Yoritgichlarni texnik xizmati reja asosida 3-6 oyda bir marta o'tkazib turiladi. Texnik xizmat ko'rsatish tadbirlari texnologik pauza vaqtlarda lampalarni o'rnatilgan joyda o'tkaziladi. Tipaviy ish hajmi quydagilarni o'z ichiga oladi: yoritilganlik, yorug'lik nurlari miqdorini o'lchash; chang va iflosliklardan tozalash; qurilmalarning ishchi holati tekshiriladi, lampalarning quvvati va boshqa ko'rsatgichlari rejim ko'rsatgichlariga to'g'ri kelishi tekshiriladi, shisha kolba va to'siqlar butunligi, korpusda yoriqlar yo'qligi ko'riladi, patron ko'zdan kechiriladi va tozalanadi, ulanish kontaktlari tekshirib tozalanadi, bo'shashgan maxkamlanishlar qotiriladi, armaturaga kirish joylarida simlarning izolyasiyasi tekshiriladi, korpusi yerlanganligi tekshiriladi, armatura holati, lampaning joylashganlik holati ko'rsatiladi. Gaz razryadli lampalarning ishga tushirishi rostlash vositalarining holati tekshiriladi: drossel, kondensator va starterishga yaroqli bo'lishi zarur. Yoritish va nurlatish qurilmalarning joriy ta'miri yillik texnik qarov va ta'mir grafigi asosida 12-24 oyda bir bor o'tkaziladi. Joriy ta'mir yoritgichlarni joyida nechi bolib, maxsus joyda yoki ustaxonada ta'mir qilinadi. Bunda quydagi tadbirlar bajariladi: qurilmani tozalash, qismlariga ajratish, nosozliklarni aniqlash, izolyasiyasini tekshirish, zarur bo'lsa to'g'irlash, bo'yoq qilish; to'suvchi romini oq rangga bo'yash, sxemani yana yig'ish detallarni joyiga mahkamlash, simlarning izolitsiyasini, kontaktlari sozligi, lampalarning butunligi tekshirib ko'riladi. To'liq yig'ilgan qurilmalarni ishchi holati tarmoqqa ulab tekshirib ko'riladi, yorug'lik oqimi o'lchab ko'riladi. Gazrazryad lampali yoritgich va nurlatgichlarda yana himoyalovchi shisha to'siq va romning holati, rezitorlar sozligi, kondensator, drossel, staterlarning ishchi holati tekshiriladi. Zarur bo'lsa, nosozliklar joyida yo'qotiladi. Yoritgich va nurlatgichlar ekspluatatsiyasida

uzilishlar bo'lmashligi uchun elektrotexnik xizmat bazasida ularning ehtiyot qisimlari bo'lishi zarur. Mavjud lampalar miqdoridan foizlarda: cho'g'lanma lampalar uchun-100%; gaz razriyadli lampalar 20...40%; patronlar-2%; startyorlar-6%; drossel-3%; himoyalovchi shisha to'siqlar-12%; zichlovchi rezina baldoqlar-20%. **Yoritish va nurlatish qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalariga rioya qilmaslik, ularning samarali ishlashini pasaytiradi va xizmatchi xodimlar va hayvonlarni elektr toki bilan shikastlanish xavfini oshiradi. Elektr qurilmalarida avariya sodir bo'lganda qattiq qizish hollari vujudga keladi, bu holat detallarni o'ta qizishiga va yong'in chiqishiga yoki portlashiga olib kelishi mumkin. Yoritish va nurlatish qurilmalarini ekspluatatsiyaga qabul qilib olinayotganda quyidagilar tekshiriladi:**

- 1) qurilmalar tomonidan haqiqiy yoritilganlik yoki nurlatilganlikni ta'minlaganligi;
- 2) o'tkazgich simlarni markasi, ularning ko'ndalang kesim yuzasi va joylashtirish usulini loyihaga mosligi;
- 3) o'tkazgich simlarni ulash sxemasi va fazalar bo'yicha yuklanishlarni taqsimlanishi;
- 4) Saqlagich elementlarni loyihaga mosligi;
- 5) izolyatsion tayanchlarni, apparatlarni, detallarni, konstruksiyalarni qotirish ishonchligi;
- 6) o'tkazgich simlarning izolyasiya qarshiligini me'yorlarga mosligi.

Yoritish va nurlatish qurilmalarini ekspluatatsiya qilishdan maqsad qurilmaning hamma elementlarini soz holatda ushlash va ularni samarali ishlashini ta'minlash. Qurilmalar yaratayotgan o'rnatilgan darajadagi yoritilganlikni yoki nurlatilganlikni ta'minlash uchun tarmoq kuchlanishining qiymatini hamda yoritgich va nurlatgichlarning umumiy holatini tekshirib boorish kerak. Kuchlanish qiymatini haddan tashqari o'zgarishi sabablarini aniqlab, uni tezda bartaraf qilish kerak. Yoritgichlarni tozalab turish katta ahamiyatga ega, chunki chang hisobiga ularning FIK hamda yoritilganligi 1,5...2 marta kamayishi mumkin. Yoritgich va nurlatgichlarni tozalashda vriularni qanday sharoitda ekspluatatsiya qilinishiga bog'liq: ko'p changli xonalarda-oyiga to'rt marta; kam changli xonalarda-oyiga ikki marta; tashqi yoritishda-yiliga uch marta.

Normal muhitli xonalarda izolyasiyaning holatini ikki yilda kamida bir marta va og'ir muhitli xonalarda yiliga kamida bir marta tekshirish kerak. O'tkazgich sim izolyasiyasining qarshiligi ikkita yonma-yon turgan saqlagichdan keyin uzgichlarni yoqilgan, eruvchan quyma olib quyilgan va lampa burab olingan holatida o'lchanadi. Izolyasiya qarshiligining qiymati 0,5M Ω dan kam bo'lmasligi kerak.

Nurlatish qurilmalarini ishlatish uchun ularga nurlatish rejimining grafik-jadvali tuziladi. Tarmoq kuchlanishining o'zgarishi 5% yuqori bo'lganda berilgan nurlanishni nurlatish rejimiga mos o'zgartirish kerak bo'ladi. UB nurlari manbalari yaratayotgan nurlatilganlikni ma'lum davrlarda ufimetr bilan tekshirib turish kerak. Lampani eskirish davri oshib brogan sari mosravishda nurlatilganlik vaqtini ham oshirib boorish kerak. Yoritish qurilmalarining oldinga yurish-qaytish harakati avtomatlashtirilgan bo'ladi. Qurilma to'xtaganda avtomatik ravishda tarmoq kuchlanishi uziladi.

Nurlatish yoki yoritish qurilmalaridan foydalanayotgan xizmatchilar texnika xavfsizligi bo'yicha kamida III-guruh kvalifikatsiyasiga ega bo'lishi kerak. Ayniqsa, nasos stansiyasida nurlatish qurilmalaridan foydalanganimizda xizmatchilarni xavfsizligiga e'tibor berishimiz zarur, chunki nasos stansiyasi o'ta xavfli xonalar kategoriyasiga kiradilar.


III.BOB HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

3.1. Yashin zarbidan himoyalash.

Yashin zarbidan himoyalash uchun sterjenli va trosli yashin qaytargich tizimidan foydalaniladi.

Sterjenli yashin qaytargichlar ayni olingan yoki bir yerga jamlangan uskunalar (stansiya va podstansiyaning ochiq tarqatish qurilmalari, yacheykalari, transformatorlari, va h.k.)ni himoyalashga mo'ljallangan.

Sterjenli yashin qaytargichning tuzulishi 6.1.–rasmda berilgan. Yashin qaytargichning himoya zonasi deganda, sterjen atrofida joylashgan uskunaning eng yukori nuqtasi sterjennikidan past bo'lib himoya zonasi radiusi ichida joylashganligiga aytiladi. Bunday radius ichiga joylashgan obyektning atmosfera yog'inlaridan ta'sirlanish ehtimoli juda kichkinadir.



6.1- rasm. Bir sterjenli yashin qaytargichning himoya zonasi

Balandligi 30metrli yakka yashin qaytargichning himoya radiusi r_x quyidagicha hisoblanadi:

$$r_x = 1,6 \cdot h \cdot \frac{h - h_x}{h + h_x}, \quad (6.1)$$

h –yashin qaytargichning to'la baladligi, m; h_x - himoyalnadigan obyektning balandligi.

Yakka tartibdagi yashin qaytargichning himoya qobiliyati himoya koefitsienti k_x bilan xarakterlanadi va u, quyidagicha hisoblanadi.

$$k_x = \operatorname{tg} \alpha = \frac{r_x}{h_a}, \quad (6.2)$$


Bu yerda h_a – yashin qaytargichning aktiv balandligi.

Qiymatlarni o'z o'rniga qo'yib k_x ning topamiz:

$$k'_x = \frac{1,6}{1 + \frac{h_x}{h}}, \quad (6.3)$$

Yashin qaytargichning balandligi 30m. dan past bo'lgandagi k_x ning ruxsat etilgan qiymati 1,6 gateng, eng katta himoya radiusi r_x esa $r_x = 1,6 \bullet h_a$ ga teng.

Kuchlanishi 10/0,4kVli quvvati 40 yoki 250kVA bo'lgan transformator punktlari nasos stansiyasi yonida joylashtirilgan. Transformator punktining nasos stansiyasi binosidan balandda bo'lishi va yashin zarbiga uchrashi mumkinligini inobatga olib yashin kaytarish va atmosfera yuqori kuchlanishlaridan himoyalash hisobini bajarish maqsadga muvofiq.



17- rasm. KTPning yerlashtirish tizimiga ulanishi.

Buyerda: 1–kuchlanishi 10kV.li havo liniyasi; 2–ankertipidagi 10kV.li sim ustun; 3–RNLD-10tipidagi liniya ajratgichi; 4–10/0,4kV.li transformator podstansiyasi; 5–0,4kV.li sim ustun; 6–0,4kV.li havo liniyasi; 7–sterjenli yashin qaytargich. 8 – yashin qaytarish sim ustuni.

6.2.-rasmda berilgan sterjenli yashin qaytargichning tuzulishi va o'lchamlaridan foydalanib nasos stansiyasidagi transformator punkti va havo liniyasini atmosfera yuqori kuchlanishlaridan himoyalash hisobini bajaramiz.

Balandligi 30 metrgacha bo'lgan yakka yashin qaytargichning himoya radiusi r_x

6.1. formula yordamida quyidagicha hisoblaymiz:

$$r_x = 1,6 \cdot h \cdot \frac{h - h_x}{h + h_x} = 1,6 \cdot 18,5 \cdot \frac{18,5 - 4,5}{18,5 + 4,5} = 18,02 \text{ m}$$

h —yashin qaytargichning to'la baladligi, m; h_x —himoyalanadigan obyektning balandligi.

Yakka tartibdagi yashin qaytargichning himoya qobiliyati himoya koeffitsienti k_x bilan xarakterlanadi va 6.2 formula vositasida quyidagicha hisoblaymiz:

$$k_x = \operatorname{tg} \alpha = \frac{r_x}{h_a} = \frac{18,02}{6} = 3 \text{ m}$$

Buyerda h_a – yashin qaytargichning aktiv balandligi.

Qiymatlarni o'z o'rniga qo'yib k_x' ni topamiz:

$$k_x' = \frac{1,6}{1 + \frac{h_x}{h}} = \frac{1,6}{1 + \frac{4,5}{18,5}} = 1,29$$

Yashin qaytargichning balandligi 30m. dan past bo'lgandagi k_x ning ruxsat etilgan qiymati 1,6 ga teng, eng katta himoya radiusi r_x esa

$$r_x = 1,6 \cdot h_a = 1,6 \cdot 14 = 22,4 \text{ m}$$

ga teng.

Himoya radiusi bizning nasos stansiyamizni to'liq himoyalay oladi yoki boshqacha aytganda yetarlicha masofa himoyalanadi.

3.2. Nolinchi simga ulanish.

Neytrali yerga ulangan 380/220V kuchlanishli asbob-uskunalarining korpuslarini himoya tariqasida bevosita yerga ulash ko'pgina hollarda yetarlicha samara bermay qolishi mumkin, chunki bunday tarmoqlarda juda ko'p yerga ulanishlar talab qilingan bo'lardi va bularning hammasini qarshiligi juda ham kichik bo'lgan yerga ulagichlardan qurishning iqtisodiy jihatdan imkoni bo'lmas edi. Bunday qarshilik, odatda, 30 Om bo'ladi. Ketma-ket ulangan ikki qarshilikning (neytralning yerga ulanish qarshiligi R_0 va shikastlangan elektr toki iste'molchisi korpusining himoya tariqasida ulangan korpusining qarshiligi R_{ep}) izolyasiyasi teshilganida ularning qarshiligi shunday bo'lishi mumkinki, korpusga bir faza orqali tutashgan tok juda kam bo'lib, u elektr iste'molchisini shikastlanishdan himoya qiladigan suyuqlanuvchan saqlagichni ishga tushira olmagan bo'lar edi.

Nolinchi simga ulangan asbob-uskunadagi izolyasiya teshilganida bir fazali qisqa tutashuv tokining zanjiri hosil bo'ladi, bu zanjirning qarshiligi nisbatan katta bo'lmaydi va faza hamda nolinchi simlarning qarshiliklaridan iborat bo'ladi. Bu yerda hosil bo'ladigan qisqa tutashuv toki odatdagi himoya tariqasidagi yerga ulanish qo'llanilgan, neytrali yerga ulanmagan tarmoqdagi bir fazali tutashish tokidan ancha katta bo'ladi. Shuning uchun shikastlangan asbob-uskunani yoki tarmoq uchastkasini himoya qiluvchi suyuqlanuvchan saqlagich yoki avtomatik ajratgich tezda ishga tushadi. Xususan, shikastlangan asbob-uskunani kuchlanish ta'siridan tez va to'la xalos qilish nolinchi simga ulashning himoya tariqasida yerga ulashga nisbatan farq qiladigan himoyalashishining asosidir. Holbuki, himoya tariqasida yerga ulashda yerga ulangan qismlardagi kuchlanishi zolyasiya shikastlanganida pasayadi, ammo uzoq vaqt saqlanib turishi mumkin.

Nolinchi sim uzilgan holda uzilgan nuqtadan naridagi hamma asbob-uskunalar faqat mutlaqo himoyasiz qolib ketmasdan, balki nolinchi sim bo'lmagan holdagiga qaraganda hatto yomon sharoitga tushib qolgan bo'lardi, chunki uzilgan

nuqtadan narida nolinchi simga ulangan harqanday apparat yoki elektr dvigatelining izolyasiyasi shikastlanganida uning korpusida va boshqa nolinchi simlarga ulangan korpuslarda ko'pincha faza kuchlanishiga teng bo'lgan kuchlanishlar hosil bo'lgan bo'lardi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun, birinchidan, nolinchi simning uzilishining oldini olishga intiladilar. Elektr yoritgichlar yoki elektr uskunalarning korpusi, elektr yoritkichning armaturasi, yoxud elektro provodkaning trubalari tok eltuvchi qismlardan izolyasiya qilinganligi tufayli normal xollarda yerga nisbatan kuchlanish ostida bo'lmaydi. Ammo izolyasiyalar buzilganda bu qismlardan istalgan biri kuchlanish ostida bo'lishi mumkin. Bu kuchlanish ko'pincha faza kuchlanishiga teng bo'ladi. Tok kuch o'tkazuvchi qismlarning izolyasiyasi shikastlanganda odamlarning elektr tokidan shikastlanish xavfini kamaytirish maqsadida bir qancha choralar ko'riladi, bu choralarning ichida eng keng tarqalgani elektr tokidan elektr uskunalarning normal xolda kuchlanish ta'sirida bo'lmagan metal qismlarini ximoyalash uchun yerga ulash yoki ularni nolinchi simga ulashdir. Kuchlanish 1000vdan ortiq bo'lgan uskunalarda himoyalash uchun yerga ulanilgan uskunalarda kuchlanishi 1000vgacha bo'lgan, neytrali yerga ulangan uskunalarda esa nolinchi simga ulashdan foydalaniladi. Himoyalash uchun yerga ulash shundan iboratki, yerga ulanadigan metal qismlari elektr o'tkazgich vositasida yerga ulagichga tegib turgan metal buyumlardan iborat.

Tuproqning solishtirma qarshiligi $\rho=92 \text{ Om} \cdot \text{m}$ olamiz.

Solishtirma qarshiligining qiymatini mavsum koeffitsientiga (K_{mav}) ko'paytiramiz.

Vertikal elektrodlar uchun:

$K_{\text{mav.v}}=1,3$

Gorizantal elektrodlar uchun:

$K_{\text{mav.g}}=2$ debolamiz.

Vertikal elektrod .

$$R_{\text{his}} = R_2 \cdot K_v = 92 \cdot 1,3 = 130 \text{ om.m}$$

Gorizantal elektrod.

$$R_{\text{his}} = P_{\text{gr}} \cdot K_g = 92 \cdot 2 = 184 \text{ om.m}$$

Elektrodlar orasidagi masofaa=2,5m chuqurligi.

$$t = k + \ell/2 = 0,7 + 25/2 = 0,7 + 1,25 = 1,95 \text{ m}$$

Bitta vertikal elektrodning yerga oqayotgan holda ko'rsatayotgan qarshiligini aniqlaymiz.

$$R_{\text{v.o}} = 0,366 \frac{130}{\ell} \cdot \sqrt{(\ell_d^2 + 0,5 \ell_d^4 t + \ell_v)} = 0,366 \cdot \frac{130}{2,5} (\ell_d^2 \cdot 2,5 + 0,5 \ell_d^4 \cdot 1,95 + 0,05)$$

$$= \frac{4 \cdot 1,95 + 2,5}{19,03} (1,5 + 0,5 \ell_d^{10,3}) = 19,03 (\ell_d^{106,4} + \ell_d^{1,94}) = 19,03$$

$$\frac{4 \cdot 1,95 - 2,5}{0,047} \cdot 5,3$$

$$(2,03 + 0,03) = 39,2 \text{ om}$$

buyurda, $d = 0,95 \cdot 0,05$ – burchagining ekvivalentdiametri.

$$\ell = a(n-1) = 2,5(10-1) = 22,5 \text{ m}$$

Asosiy podstantsiyadan T 63/10 2ta kabel liniyasi ketayapti. Bir fazali qisqa tutashuvda himoyalash vositalarini ishochligini quyidagi formula yordamida aniqlaymiz:

$$I_{\text{cp}} = U_H (\frac{\ell_v}{350} + \frac{\ell_H}{10}) = 0,38 (\frac{70}{350} + \frac{77}{10}) = 5,58 \text{ A}$$

$$\frac{350}{10} \quad \frac{350}{10}$$

Agarda yerga ulanish qurilmalari bir vaqtda 1000Vdan yuqori va 1000V pastroq qurulmalarda qo'llansa, quyidagi talablar bajarilishi kerak:

$$\underline{1,25} \geq R_{CP, UL} \leq 10 \text{ omyoki } \underline{1,25} = 0,22 \text{ om} < 10 \text{ om}$$

Icp

5,58

Gorizantal po‘latli kesmlardan bajarilgan yerga ulagichlar qarshiliklarini topamiz:

$$R_r = \underline{0,366} * R_{his.ch} * \ell_{d2} \ell_{kes} = \underline{0,366} * 184 * \ell_{d2} * 22,5 = \underline{49,04} * \ell_{d45} = 15,59 \text{ Om}$$

$$Kerr... * \ell_{kes} \quad \ell_{kes} * t_{kes} \quad 0,56 * 22,5 \quad 0,05 * 1,95 \quad 12,6 \quad 0,097$$

Buerda, $\ell_{kes} = a(p-1) = 22,5$ – gorizantal yerga ulagichning uzunligi.

$$K_{floyd} \cdot r = 0,56$$

Vertikal elektrodلarni qarshiligini aniqlaymiz, buyerda ularning qo‘shadigan kesmlarning qarshiliklarini ham hisobga olamiz.

$$R_v = \underline{R_v} * R_{sum} = \underline{15,59} * 4,8 = \underline{74,83} = 6,93 \text{ om}$$

$$R_v - R_{sum} \quad 15,59 - 4,8 \quad 10,19$$

Elektrodlar sonini aniqlaymiz.

$$N = \underline{R_v} * 0 = \underline{39,2} = \underline{39,2} = 7,6 = 8$$

$$C_{HE} * R_v \quad 6,93 * 0,74 \quad 5,12$$

Demak, hulosa qilib aytganida, 8 ta elektrod olamiz.

Bir fazali qisqa tutashuv tokidan himoyalash.

Neytrali yerga ulangan 380/220V kuchlanishli qurulma asbob–uskunalarning korpuslarini himoya tariqasida bevosita yerga ulash ko‘pgina hollarda yetarlicha samara bermay qolishi mumkin, chunki bunday tarmoqlarda juda ko‘p yerga ulanishlar talab qilingan bo‘lardi va ularning iqtisodiy jihatdan imkoni bo‘lmas edi. Bunday qarshilig odamda 30om bo‘ladi. Ketmaket ulangan ikki qarshiligi R_o va shikastlangan elektr toki iste‘mol korpusining himoya tariqasida ulangan korpusning qarshiligi R_f) izolyasiyasi teshilganda, ularning qarshiligi shunday bo‘lishi mumkin–ki, korpusga bir faza orqali tutashgan tok juda kam bo‘lib, elektr istemolchisini shikaslanishidan himoya qiladigan suyuqlanuvchan saqlagichni ishga tushura olmagan bo‘lar edi. Yoritish tizimi linyaning turli uchastkalarida har xil markadagi ishlar ishlatiladigan bo‘lsa, u holda har qaysi uchastka uchun G_p –ni alohida hisoblab, keyin ularni arifmetik qo‘shish mumkin. Hosil bo‘ladigan xatolik umumiy G_p –ni va tekshirishning ishonchliligini oshiradi. Sxemaning ikkinchi darajali elektrodleri (avtomatning g‘altaklari; tok transformatorining chulg‘amlari)ni qarshiligini hisobga olmasdan yuz beradigan xatolikni kompensatsiyalaydi.

2.1-rasmda himoyalash aparatining bir fazali qisqa tutashuvda ishonchliligini tekshirishi sxemasi keltirilgan.

$$R_{f.yu} = \rho \ell_1 = \underline{0,028 \cdot 20} = 0,0564 \text{ om}$$

10

$$R_{f.ch} = \underline{0,028 \cdot 13} = 0,094 \text{ om}$$

4

$$R_{f.6} = \underline{0,028 \cdot 20} = 0,093 \text{ om}$$

6

$$R_{f.4_1} = \underline{0,028 \cdot 15} = 0,105 \text{ om}$$

$$X_{pu} = 0.29 \cdot \ell \cdot D / 2 = 0.15 \text{ om /km}$$

buyenda, $\rho = 0.028 \text{ om.m}$ – alyumin tolali sim va kabellarning solishtirma qarshiligi.

$$\begin{aligned} \ell_1 &= 0.02 \text{ km} \quad \ell_2 = 0.013 \text{ km} \quad \ell_3 = 0.015 \text{ km} \\ G'_{p_1} &= \ell_1 \sqrt{(R_{fu} + R_{nu})^2 + X_{pu}^2} = \\ &= 0.02 \sqrt{(0.564 + 0.091)^2 + 0.15^2} = 0.02 \cdot 0.673 = 0.01346 \text{ om} \end{aligned}$$

$$G'_{p_2} = 0.008736 \text{ om} \quad G'_{p_3} = 0.01 \text{ om}$$

$$G'_p = \sum G' = 0.01346 + 0.008736 + 0.01 = 0.11 \text{ om}$$

$$J_{q.t} = \frac{4}{\dots} = \frac{220}{\dots} = 423 \text{ A}$$

$$G'_{TRV} + G'_p = 0.41 + 0.11$$

$$G'_{trv} = \frac{k}{\dots} = \frac{26}{\dots} = 0.41 \text{ om}$$

$$S_{nam.tr} = 63$$


$$J_{q.t} = 423 \text{ t}$$

$$J_{q.t} \geq K_3 \cdot J_{3.A}$$

$$423 > 3 \cdot 32 = 96 \text{ A} \quad K_3 = 3 - \text{issiqlik relesi va eruvchan saqlagichlar uchun.}$$

Bizning bu holatda nollashtirishimiz samarali, ya'ni effektiv hisoblanadi. Chunki, $I_{K.T} \geq K_3 \cdot J_{3.A}$ sharti bajarildi, ya'ni $169.56 \text{ A} > 3 \cdot 32 = 96 \text{ A}$

Demak, nollashtirish effektivdir. (rasm – 2.1.)



18 – rasm. Erganollashsxemasi

IV BOB. ISHLAB CHIQILGAN TUNGI KO'CHA YORITGICH ELEKTR CHIROQLARINI BOSHQARISHNI

IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.

Xisobni Jondor tumani markazidagi A.Navoiy ko'chasidagi 1km uzunlikdagi ko'cha misolida olib boramiz. Ko'chaning har 40mda DRL-500Vt gacha quvvatga ega bulgan ko'cha yoritgichlari o'rnatilgan, 1 km uzunlikdagi ko'chaga 25ta LED zamonaviy ko'cha yoritgichlari o'rnatish mumkin. Shundan kelib chiqqan xolda iqtisodiy xisoblarni olib boramiz:

1. 25 ta LED zamonaviy ko'cha yoritgichlari o'rnatish uchun kapital sarf 2.5mln so'mni tashkil etadi.

2. Zamonaviy boshqarish uskunalari bilan jixozlangan 25ta LED zamonaviy ko'cha yoritgichlari o'rnatish uchun kapital sarf 4mln so'mni tashkil etadi.

3. 25taLED zamonaviy ko'cha yoritgichlarining bir sutkalik o'rtacha energiya sarfi 2.5kVt/coat. 25ta DRL-500 tipli yoritgichi uchun bir sutkalik o'rtacha energiya sarfi 50kVt/soat.

4. Birinchi variant uchun Bir yillik energiya sarfi:

$$W_1 = 2.5 \text{ kVt/coat} \cdot 365 = 912.5 \text{ kvt/soat}$$

5. Ikkinchi variant uchun Bir yillik energiya sarfi:

$$W_2 = 50 \text{ kVt/soat} \cdot 365 = 18250 \text{ kvt/soat}$$

6. **Soffoyda:**

$$CH_p = W_2 - W_1 = 18250 \text{ kvt/soat} - 912.5 \text{ kvt/soat} = 17337.5 \text{ kvt/soat} \cdot 230 \text{ so'm} = 3987625 \text{ co'm.}$$

7. Taqqoslovchi iqtisodiy samaradorlik koeffitsenti

$$E = CH_n / K = 3987625 \text{ co'm.} / 4000000 = 0.99$$

$$Oqlash \text{ muddati } T_{ok.} = 1/E = 1/0.99 = 1.01 \text{ yil}$$

Xulosa

Bitiruv ishida yorug'lik qurilmalarining ish rejimlarini avtomatlashtirish elektr energiya iste'molini tejash, lampalarning xizmat muddatlarini oshirish, optimal yoritish rejimini ta'minlash imkoniyatini beradi. Har qanday mamlakatning barqaror rivojlanishida energiya resurslarining iste'moli hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki har bir turdagi mahsulotni ishlab chiqarish uchun ma'lum miqdorda energiya sarf qilinadi, ya'ni har birlik miqdordagi mahsulotni tannarxi ham bevosita energiya (issiqlik, elektr energiyasi) sarfiga bog'liq bo'ladi. Tabiiy energiya resurslarini tejash va undan oqilona foydalanish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Elektr energiya yoritish va elektr kuch tarmoqlarini hisobiy ishlari bajarildi. Zamonaviy elektr yoritgichlar yuklanishi hisoblandi va shunga binoan himoya vositalari ishga tushirish vositalari tanlandi.. Hayot faoliyati xavfsizligi bo'limida tegishli choralar keltirildi.

Loyihalanayotgan variant texnik iqtisodiy jihatdan asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.V.Frolov - Новыеистochnikienergii .Alternativnayaenergetika, Svobodnayaenergiya. M. 2011. (<http://eurosamodelki.ru/knigi-i-gymnali/elektriky-i-radiolubately/frolov-novie-istochniki-energii-2011-skachat-besplatno-new-free-energy-book>)
2. B.Alxasov. Aktualnyeproblemyvozbnoovlyayemyxenergoresursov. M.2006. (<http://www.diagram.com.ua/library/energ-alternativnaya-energiya>)
3. B.V. Lukutin. Vozobnovlyayemyeistochnikielektroenergii. Uchebnoeposobie. M. 2008. (<http://www.diagram.com.ua/library/energ-alternativnaya-energiya>)
4. Solnechnyeteplovyeelektrostansii. Informatsionnyportal. (<http://solarsoul.net/solnechnye-teplovye-elektrostancii>).
5. Davis E.E. Power satellite construction location considerations. – In: Proc. 12th IECEC. N. Y.: IEEE, 1977, p. 1399 – 1404.
6. Hanley G. M., Bergeron R. P. An overview of the satellite power system transportation. N. Y.: AIAA, 1978. 8 p. (AIAA Pap., N 78 - 975).
7. Bekey I. Integrating space developments: 1980 – 1985. – Astr. And Aeron., 1978, N 2, p. 50 – 67.
8. GrishinS. D., EvichA. F., NarimanovE. A., SurikovV. M. Perspektivyiivozmoznostisozdaniyagolovnyxobrazovkosmicheskixsolnechnyxelektrostansiy. – Vkn.: Tr. XVI chteniy, posvyashchennyxrazrabotkenauchnogonaslediiirazvitiyuideyK.E. Siolkovskogo. «K.E. Siolkovskiyiproblyemykosmicheskogoproizvodstva» (Kaluga, 14–17 sentyabrya 1981 g.). M.; MIETANSSSR, 1982, s. 110 – 113.
9. Summers R. A., Blieden H.R., Bloomquist C. T. Assesment of satellite power station. N.Y.; AIAA, 1977. 8 p. (AIAA Pap., N 77 - 552).
10. Grey J. A rationale for large space–based solar power systems. N. Y.; AIAA, 1977. 12 p. (AIAA Pap., N 77-510).
11. GrilixesV. A. Solnechnyekosmicheskieenergostansii – L.; Nauka, 1986-182 s.
12. GrilixesV. A., OrlovP.P., PopovL. B. Solnechnayaenergiyaikosmicheskipolety. M.: Nauka, 1984. 216s.
13. PogdyakovB. S., KoptelovE. A. Termoelektricheskayaenergetika. M.: Atomizdat, 1974. 246s.
14. UshakovB. A., NikitinV. D., EmelyanovI. YA. Osnovytermoemissionnogopreobrazovaniyaenergii. M.: Atomizdat, 1974. 288s.
15. KulandinA. A., TimashevS. V., IvanovV. P. Energeticheskieistemykosmicheskixapparatov. 2-eizd.,pererab. Idop. M.: Mashinostroenie, 1979. 320s.
16. Teoriyaireshetenergosiловыхustanovokkosmicheskixletatelnyxapparatov / L. A. Kvasnikov, L. A. Latyshev, D. D. Sevruck, V. B. Tixonov. M.: Mashinostroenie, 1984. 332s.

17. Kashkarov A. P. Vetrogeneratory, solnechnyye batareyi i drugie poleznye konstruksii. – M.: DMK Press, 2011. – 144 s.
18. Tsvaydel D. J., Ueyr A. Vozobnovlyаемые istochniki energii: Per. s angl. – M.: Energoatomizdat. 1990. – 392 s.: il.
19. Solnechnaya energetika: ucheb. Posobie dlya vuzov / V. I. Vissarionov, G. V. Deryugina, V. A. Kuznetsova, N. K. Malinin; podred. V. I. Vissarionova. – M.: Izdatelskiy dom MEI, 2008. – 276 s.
20. V. I. Vissarionov, G. V. Deryugina, V. A. Kuznetsova, N. K. Malinin. Solnechnaya energetika: Uchebnoe posobie dlya vuzov / Podred. V. I. Vissarionova. – M.: Izdatelskiy dom MEI, 2008. – s.
21. Sokolskiy A. K. Netraditsionnye i vozobnovlyаемые istochniki energii. Uchebnoe posobie. – M.: RGOTUPS, 2006.
22. Lyashkov V. I., Kuzmin S. N. Netraditsionnye i vozobnovlyаемые istochniki energii. Uchebnoe posobie. – Tambov: Izd-vo Tamb. Gos. Texn. Un-ta, 2003. – 96 s.
23. Energeticheskie ustanovki kosmicheskix apparatov / S. A. Podshivalov, E. I. Ivanov, L. I. Muratov. Idr. M.: Energoizdat, 1981. 223 s.
24. Vasilev A. M., Landsman A. P. Poluprovodnikovyye fotopreobrazovateli. M. Izd-vo «Sovetskoye radio», 1971, 248 str., t. 8500 ekz., s. 91 kop.
25. S. I. Vlasov, D. A. Tolipov. Netraditsionnye istochniki energii.

Elektron adabiyotlar va internet saytlari

1. www.3dnews.ru/editorial/sun_energy.
2. <http://solar-battery.narod.ru>
3. http://www.gigavat.com/ses_battery.php#
4. <http://pop-hi-tech.ru/tech.ru/>
5. <http://blog.ae.net.ua/>
6. <http://www.itsintez.com/index/>

ILOVALAR:

metall	A, eV	metall	A, eV	metall	A, eV
Alyuminiy	3,74	Vismut	4,62	Molibden	4,27
Kaliy	2,15	Volfram	4,50	Natriy	2,27
Nikel	4,84	Oltin	4,52	Kumush	4,28
Bariy	2,29	Temir	4,36	Titan	3,92
Kobalt	4,25	Litiy	2,39	Tseziy	1,89
Platina	5,29	Mis	4,47	Rux	3,74

